"TASDIQLAYMAN"
Toshkent shahar Madaniyat
boshqarmasi boshlig'i v.v.b.
B.B.Baxromov
2026-yil "8" iyul

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI TOSHKENT SHAHAR MADANIYAT BOSHQARMASI UCHTEPA TUMANI 28-SONLI BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABINING

USTAVI

Toshkent – 2026

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi
Toshkent shahar Madaniyat boshqarmasi
Uchtepa tumani 28-sonli bolalar musiqa va san’at maktabining
USTAVI

I bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Namunaviy ustav O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son, “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida” 2021-yil 20-yanvardagi O‘RQ-668-son, “Pedagogning maqomi to‘g‘risida” 2024-yil 1-fevraldagi O‘RQ-901-son Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 27-iyuldagi PF-114-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 18-fevraldagi 59-son qarori 2-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maktabdan tashqari ta’lim muassasalari to‘g‘risidagi nizom”, 2024-yil 27-martdagi 157-son “Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori, 2024-yil 20-dekabrdagi 862-son “Madaniyat ta’limi markazi” davlat muassasasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori, 2016-yil 5-maydagi “Bolalar musiqa va san’at maktablari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 144-son, 2026-yil 16-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 175-son qarorlariga muvofiq bolalar musiqa va san’at maktablarining ustavida ko‘rsatiladigan asosiy qoidalarni belgilaydi.

2. Toshkent shahar 28-sonli Bolalar musiqa va san’at maktabi (keyingi o‘rinlarda **28-sonli BMSM** deb yuritiladi) uzluksiz ta’lim berishining tarkibiy qismi sifatida qo‘shimcha ta’lim berishga mo‘ljallangan davlat muassasasi hisoblanadi.

3. 28-sonli BMSM faoliyatining asosiy vazifasi yosh avlodning musiqa va san’at turlariga qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirish, ijtimoiy faolligini oshirish, ularni xalqimiz an’analariga va milliy qadriyatlarimizga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash, ma’naviy va ma’rifiy saviyasini har tomonlama oshirishdan iborat.

4. 28-sonli BMSM o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, boshqa qonunchilik hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi (keyingi o‘rinlarda – **Vazirlik**) hamda “Madaniyat ta’limi markazi” davlat muassasasining hay’at qarorlari, buyruqlari va topshiriqlari, shuningdek mazkur Ustav asosida amalga oshiradi.

5. 28-sonli BMSM davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxs hisoblanadi hamda o‘z ustaviga, mustaqil balansga, shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi yozilgan muhr, shtamp hamda blankalarga ega bo‘ladi.

6. 28-sonli BMSM ustavi Namunaviy ustav asosida ishlab chiqiladi.

28-sonli BMSM ustavida quyidagilar ko‘rsatiladi:

28-sonli BMSMning to‘liq va qisqartirilgan nomi: **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI TOSHKENT SHAHAR**

MADANIYAT BOSHQARMASI UCHTEPA TUMANI 28-SONLI BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABI (qisqaptirilgan nomi: UCHTEPA TUMANI 28-SONLI BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABI, 28-sonli BMSM);

ta'lim turiga mansubligi:	qo'shimcha ta'lim;
ta'lim faoliyati yo'nalishlari:	musiqa va san'at;
ta'lim olish shakllari:	kunduzgi;
mulkchilik shakli:	davlat ta'lim muassasasi;
ta'lim muassasasining identifikasiya raqami (CTIR):	300708454
28-sonli BMSMning yuridik manzili:	Toshkent shahar Uchtepa tumani Bayram ko'chasi 79 a uy;

Ta'lim muassasasi 2008-yil 06-fevraldagi 002009-sonli raqam bilan Toshkent shahar Uchtepa tumani Davlat hizmatlari markazi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan.

28-sonli BMSMni boshqarish tartibi: Toshkent shahar madaniyat boshqarmasi.

28-sonli BMSMni tashkil etish to'g'risidagi hujjat rekvizitlari: 28-sonli BMSM Toshkent shahar Akmal Ikromov rayon ijroya qo'mitasining qarori bilan 1979 yilda tashkil topgan.

7. 28-sonli BMSM ustavi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar madaniyat boshqarmasi (keyingi o'rinlarda – hududiy madaniyat boshqaruv organlari) tomonidan tasdiqlanadi va belgilangan tartibda Davlat xizmatlari markazlari orqali davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

II bob. 28-son BMSMning maqsadi va vazifalari

8. 28-sonli BMSMning asosiy maqsadi yosh avlodning musiqa va san'at turlariga bo'lgan qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirish, ularning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, milliy an'ana va qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy-axloqiy va ma'rifiy saviyasini yuksaltirishdan iborat.

9. 28-sonli BMSMning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

o'quvchilarning ma'naviy-estetik kamoloti uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

o'quvchilarning iste'dodi, ijodiy qobiliyati va ijrochilik mahoratini rivojlantirish, madaniy saviyasini yuksaltirish;

o'quvchilarning milliy va jahon musiqa hamda san'atining yuksak namunalaridan, o'zbek xalqining mumtoz musiqa merosidan bahramand bo'lishlari uchun imkoniyatlar yaratish;

milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish;

musiqa, xoreografiya, teatr, tasviriy va amaliy san'at yo'nalishlari bo'yicha boshlang'ich bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

iqtidorli o'quvchilarni professional ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirishga tayyorlash;

o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni san'atga keng jalb etish;

o'quvchilarda Vatanga sadoqat, milliy g'urur, estetik did va ijodiy tafakkurni rivojlantirish.

10. 28-sonli BMSM o‘z zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

o‘quv rejalari va ta’lim dasturlari asosida ta’lim jarayonini tashkil etadi;

o‘quvchilar bilan individual va jamoaviy mashg‘ulotlar olib boradi;

28-sonli BMSMda o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish maqsadida konsertlar, hisobot chiqishlari, ko‘rgazmalar, sahna chiqishlari, festivallar, tanlovlar va boshqa ijodiy tadbirlarni tashkil etadi hamda ularda ishtirok etadi;

iqtidorli o‘quvchilarni aniqlaydi, qo‘llab-quvvatlaydi va ularning ijodiy rivojlanishini ta’minlaydi;

iqtidorli o‘quvchilar bilan individual ishlash, ularni ko‘rik-tanlovlar va professional ta’limning keyingi bosqichlariga maqsadli tayyorlash ishlarini amalga oshiradi;

o‘quv-tarbiyaviy jarayonga ilg‘or pedagogik usullar va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etadi;

ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

11. 28-sonli BMSM o‘quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlariga ko‘ra, ularning ijodiy imkoniyatlarini yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan musiqa (cholg‘u ijrochiligi, vokal san’ati, xalq ijodiyoti) va san’at (xoreografiya, tasviriy san’at, amaliy san’at, dizayn, aktyorlik san’ati) yo‘nalishlarida (keyingi o‘rinlarda – ta’lim yo‘nalishlari) faoliyatni amalga oshiradi**.**

III bob. 28-sonli BMSMning huquqlari va majburiyatlari

12. 28-sonli BMSMning huquqlari quyidagilardan iborat:

xodimlari va o‘quvchilardan 28-sonli BMSMning ustavi va ichki tartib-qoidalariga rioya etilishini talab qilish;

ta’lim-tarbiya jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarning takomillashgan va zamon talablariga mos shakllari, vositalari hamda usullarini qo‘llash;

moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta’lim mazmuni va samaradorligini oshirish bo‘yicha hududiy madaniyat boshqaruv organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga taklif kiritish;

o‘z faoliyatini takomillashtirish maqsadida qonunchilik hujjatlariga muvofiq ko‘char va ko‘chmas mol-mulkni ijaraga olish;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan manbalar hisobidan budjetdan tashqari mablag‘larni jalb etish.

13. 28-sonli BMSMning Quyidagilar majburiyatlari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, “Madaniyat ta’limi markazi” davlat muassasasi, hududiy madaniyat boshqaruv organlari hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining qarorlari, buyruqlari hamda boshqa hujjatlar ijrosini ta’minlash, topshiriq va ko‘rsatmalarni bajarish;

ta’lim-tarbiya jarayonini sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalariga muvofiq tashkil etish;

o‘qituvchi, jo‘rnavoz va o‘quvchilar tomonidan o‘z vazifalarini bajarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

o‘qituvchi hamda jo‘rnavozlarni qayta tayyorlashni va ularning malakasini

oshirishni tashkil etish;

moddiy-texnik bazaning ta’minoti, saqlanishi va undan oqilona foydalanilishini ta’minlash;

o‘quvchilarning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar (bundan buyon ota-onalar deb yuritiladi) bilan shartnomalar tuzish;

korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish choralarini ko‘rish;

amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ichki mehnat tartibi qoidalarini tasdiqlash va ularga rioya etilishini ta’minlash.

14. 28-sonli BMSM ishini tashkil etish va ish tartibi ichki mehnat tartibi qoidalarida belgilanadi.

15. 28-sonli BMSM zimmasiga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

IV bob. 28-sonli BMSMda qabul jarayonini tashkil etish

16. 28-sonli BMSM rahbariyati har yili iyun-avgust oylarida o‘qishga qabul qilish ishlarini tashkil etadi.

O‘quvchilar 28-sonli BMSMga O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan belgilanadigan qabul kvotalari doirasida o‘qishga qabul qilinadi.

Qabul kvotalari 28-sonli BMSMning quvvati, moddiy-texnika bazasi, kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasi, ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha talab va ehtiyojlar inobatga olingan holda shakllantiriladi.

Qabul jarayoni oshkoralik va tenglik prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

17. 28-sonli BMSMda qabul sinovlarini o‘tkazish uchun 28-sonli BMSM direktorining buyrug‘i bilan 5–7 kishidan iborat qabul komissiyasi tuziladi.

18. Qabul komissiyasi tarkibiga 28-sonli BMSM direktori, direktorning o‘quv-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari va tajribali pedagoglar kiritiladi. 28-sonli BMSM direktori qabul komissiyasi raisi hisoblanadi.

19. 28-sonli BMSMga o‘qishga kirish uchun o‘quvchining ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar har yili 1-avgustdan 26-avgustgacha qabul komissiyasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

a) ta’lim yo‘nalishi va mutaxassislik ko‘rsatilgan ariza;

b) tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma nusxasi;

v) belgilangan shakldagi tibbiy ma’lumotnoma;

g) 3 x 4 o‘lchamli 2 ta fotosurat.

20. Qabul sinovlari har yili 31-avgustga qadar o‘quvchining ijodiy qobiliyatini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Qabul sinovlari qabul komissiyasi huzurida o‘tkaziladi. Qabul sinovlari bir marta o‘tkaziladi. Apellyatsiya tartibi bundan mustasno.

21. Qabul komissiyasi ota-onaning arizasida ko‘rsatilgan ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘quvchining ijodiy qobiliyati quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

musiqa (cholg‘u ijrochiligi, vokal san’ati, xalq ijodiyoti) yo‘nalishi bo‘yicha – musiqa ritmiga moslashishi, qo‘shiq aytishi, musiqani eshitishi va eslab qolishi;

san’at yo‘nalishlari bo‘yicha:

xoreografiya – jismoniy mosligi, ritmga moslashishi, musiqani eshitishi;

tasviriy san’at, amaliy san’at va dizayn – tasavvuridagi narsa-buyum yoki manzarani tasvirlay olishi;

aktyorlik san’ati – she’r yoki monologni yoddan ifodali o‘qishi hamda taqlid qila olishi.

22. 28-sonli BMSMning ikkinchi va undan yuqori sinflariga qabul qilish uchun o‘quvchilar mazkur Ustavning 21-bandida nazarda tutilgan qabul sinovlaridan tashqari tasdiqlangan o‘quv dasturlari asosida tegishli maxsus fanlar bo‘yicha ham sinov topshiradi.

23. O‘quvchining sinovdan o‘tgan yoki o‘tmaganligi qabul komissiyasi a’zolarining ochiq ovoz berishi orqali aniqlanadi.

Qabul komissiyasi a’zolarining ko‘pchiligi ijobiy ovoz bergan taqdirda o‘quvchi qabul sinovidan o‘tgan hisoblanadi.

Ovozlar teng bo‘lganda qabul komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

24. Jadval bo‘yicha qabul sinovlariga kelmagan o‘quvchilar uchun qayta sinovlar o‘tkazilmaydi.

Tegishli yo‘nalish va mutaxassisliklar bo‘yicha sinov natijalari qabul sinovlari yakunlangandan so‘ng uch ish kuni ichida e’lon qilinadi.

25. Qabul sinovlari davrida apellyatsiya shikoyatlarini ko‘rib chiqish uchun 3–5 nafar mutaxassis o‘qituvchilardan iborat apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga qabul komissiyasi a’zolarini kiritishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Apellyatsiya shikoyatlarini ko‘rib chiqish tartibi qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Apellyatsiya murojaatlari natijalar e’lon qilingan kundan e’tiboran bir ish kuni ichida beriladi.

Apellyatsiya komissiyasi qarori yakuniy hisoblanadi.

Qabul sinovlari videoyozuv asosida rasmiylashtirilishi mumkin.

26. Qabul sinovlari natijalari tegishli yo‘nalishlar va mutaxassisliklar kesimida qabul qaydnomalariga kiritiladi.

Qabul qaydnomalari qabul komissiyasi raisi va kotibi tomonidan imzolanadi hamda muhr bilan tasdiqlanadi.

27. Qabul komissiyasi o‘quvchini o‘qishga qabul qilish yoki qabul qilmaslik to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Qabul komissiyasining ijobiy qarori asosida 28-sonli BMSM direktori o‘quvchini o‘qishga qabul qilish to‘g‘risida buyruq chiqaradi.

O‘quv yili davomida o‘quvchilarni o‘qishga qabul qilishga yo‘l qo‘yilmaydi, boshqa 28-sonli BMSMdan o‘qishi ko‘chirilgan o‘quvchilar bundan mustasno.

V bob. O‘quvchilar o‘qishini ko‘chirish va tiklash

28. O‘quvchining ota-onasi o‘z xohishiga ko‘ra o‘quv yili davomida yoki u

tugagandan so‘ng farzandini o‘qiyotgan 28-sonli BMSMdan boshqasiga o‘tkazish huquqiga ega.

O‘quvchilar ota-onalarining arizasi asosida o‘qiyotgan 28-sonli BMSMdan boshqasiga amaldagi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkaziladi.

29. O‘qiyotgan 28-sonli BMSMdan boshqasiga o‘tkazilgan o‘quvchilar tomonidan o‘qishni davom ettirish uchun tanlangan BMSMga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

o‘qigan joyidan ma’lumotnoma;

o‘quvchining baholar (o‘zlashtirish) tabeli;

yakka tartibdagi ish rejasi (musiqa yo‘nalishlari uchun).

30. O‘quvchini bir ta’lim yo‘nalishidan boshqa ta’lim yo‘nalishiga o‘tkazish 28-sonli BMSMdagi ta’limning birinchi va ikkinchi yilida amalga oshiriladi.

Yuqori sinflarda bir ta’lim yo‘nalishidan boshqa ta’lim yo‘nalishiga o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.

31. Bir ta’lim yo‘nalishidan boshqasiga o‘tkazish 28-sonli BMSM direktorining buyrug‘i asosida besh kishidan iborat tarkibda tuziladigan o‘quvchilarni bir ta’lim yo‘nalishidan boshqasiga ko‘chirish komissiyasining (bundan buyon matnda ko‘chirish komissiyasi deb yuritiladi) qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Ko‘chirish komissiyasi tarkibiga 28-sonli BMSM direktori, direktorning o‘quv-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari va pedagog xodimlar kiritiladi. 28-sonli BMSM direktori ko‘chirish komissiyasi raisi hisoblanadi.

Ko‘chirish komissiyasi o‘quv yili davomida faoliyat yuritadi.

32. Ko‘chirish komissiyasi tomonidan bir ta’lim yo‘nalishidan boshqasiga o‘tkazishda o‘quvchining mazkur yo‘nalish bo‘yicha davlat ta’lim talablarining minimal darajada o‘zlashtirgani inobatga olinadi.

33. Ko‘chirish komissiyasining qarori o‘quvchiga darhol e’lon qilinadi.

Ko‘chirish komissiyasining qarori ijobiy bo‘lgan taqdirda, unga asosan 28-sonli BMSM direktori o‘quvchini tanlangan ta’lim yo‘nalishiga o‘tkazish to‘g‘risida buyruq chiqaradi.

34. 28-sonli BMSMda o‘quvchilar kontingenti har yili sentabr oyida bir marta tasdiqlanadi.

VI bob. O‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish

35. 28-sonli BMSMda musiqa (cholg‘u ijrochiligi, vokal san’ati, xalq ijodiyoti) va san’at (xoreografiya, tasviriy san’at, amaliy san’at, dizayn, aktyorlik san’ati) ta’lim yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, bolalarni 1-sinfga qabul qilish yoshi va o‘qish muddatlari belgilangan tartibda tasdiqlangan o‘quv rejalari asosida belgilanadi.

T/r	Ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari	Qabul yoshi	O‘qish muddati
I. Musiqa yo‘nalishi			
Ta’lim yo‘nalishi: Cholg‘u ijrochiligi			
1.	Fortepiano ijrochiligi	7–10	7 yil
2.	Torli cholg‘ular ijrochiligi (skripka, alt, violonchel, kontrabas)	7–10	7 yil

3.	Estrada cholg‘ulari ijrochiligi: fortepiano, torli cholg‘ular (skripka, alt, violonchel, kontrabas); damli va zarbli cholg‘ular (klarnet, saksofon, truba, trombon, urma-zarbli cholg‘ular), gitara, bas gitara	7–10 7–12	7 yil 5 yil
4.	Xalq cholg‘ulari ijrochiligi (nay, qo‘shnay, chang, qonun, rubob prima, qashqar rubob, afg‘on rubob, tanbur, dutor, dutor bas, g‘ijjak, g‘ijjak alt, g‘ijjak qobuz bas, g‘ijjak qobuz kontrabas, doira, bayan, akkordeon, gitara)	7–12	5 yil
5.	Damli va zarbli cholg‘ular ijrochiligi (fleyta, goboy, klarnet, saksofon, fagot, truba, bariton, trombon, valtorna, tuba, urma-zarbli cholg‘ular)	7–12	5 yil
6.	An’anaviy cholg‘ular ijrochiligi (nay, qo‘shnay, chang, qonun, g‘ijjak, qashqar rubob, tanbur, dutor, ud, doira)	7–12	5 yil
Ta’lim yo‘nalishi: Vokal san’ati			
7.	An’anaviy xonandalik	7–12	5 yil
8.	Akademik xonandalik	7–12	5 yil
9.	Estrada xonandaligi	7–12	5 yil
Ta’lim yo‘nalishi: Xalq ijodiyoti			
10.	Baxshichilik ijrochiligi	7–12	5 yil
11.	Folklor ijrochilik san’ati	7–12	5 yil
12.	Askiya san’ati	7–12	5 yil
II. San’at yo‘nalishi			
Ta’lim yo‘nalishi: Xoreografiya			
13.	Klassik raqs ijrochiligi	7–12	5 yil
14.	Xalq raqsi ijrochiligi	7–12	5 yil
15.	Estrada raqs ijrochiligi	7–12	5 yil
Ta’lim yo‘nalishi: Tasviriy san’at			
16.	Dastgohli rangtasvir	7–12	5 yil
17.	Xattotlik va miniatyura	7–12	5 yil
18.	Grafika	7–12	5 yil
19.	Haykaltaroshlik	7–12	5 yil
Ta’lim yo‘nalishi: Amaliy san’at			
20.	Badiiy yog‘och o‘ymakorligi	7–12	5 yil
21.	Badiiy ganch o‘ymakorligi	7–12	5 yil
22.	Badiiy naqqoshlik	7–12	5 yil
23.	Badiiy kulolchilik	7–12	5 yil
24.	Badiiy misgarlik	7–12	5 yil
25.	Badiiy zargarlik	7–12	5 yil
26.	Badiiy zardo‘zlik	7–12	5 yil
27.	Badiiy kashtachilik	7–12	5 yil
28.	Qo‘g‘irchoq yasash texnologiyasi	7–12	5 yil
Ta’lim yo‘nalishi: Dizayn			
29.	Arxitektura dizayni	7–12	5 yil

30.	Liboslar dizayni	7–12	5 yil
31.	Kompyuter grafikasi dizayni	7–12	5 yil
32.	Floristika dizayni	7–12	5 yil
Ta’lim yo‘nalishi: Aktyorlik san’ati			
33.	Teatr va kino aktyorligi	7–12	5 yil
34.	Qo‘g‘irchoq teatr aktyorligi	7–12	5 yil

36. 28-sonli BMSMda o‘quv yili 2-sentabrdan boshlanib kelgusi yilning 31-mayiga qadar davom etadi hamda to‘rtta chorakka bo‘linadi.

37. 28-sonli BMSMda ta’lim jarayoni o‘zbek va rus tillarida olib boriladi.

38. 28-sonli BMSMda o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda quyidagi muddatlarga amal qilinadi:

o‘quv yilining davomiyligi – 34 hafta;

o‘quv haftasining davomiyligi – 6 kun;

dars mashg‘ulotining davomiyligi – 45 daqiqa (bir akademik soat);

dars mashg‘ulotlari oralig‘idagi tanaffus davomiyligi – 5 daqiqa.

Jamoa ijrochiligi va bitiruvchilar mutaxassislik fani bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari haftasiga ikki marta 1,5 akademik soatdan yoki uch marta bir akademik soatdan tashkil etilishi mumkin.

Mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq bayram (ishlanmaydigan) kunlarda dars mashg‘ulotlari o‘tkazilmaydi.

Bayram (ishlanmaydigan) kunlariga to‘g‘ri kelgan dars mashg‘ulotlari mavzulari o‘quv dasturlari ixchamlashtirilgan holda keyingi mashg‘ulotlarda o‘zlashtirilishi ta’minlanadi.

39. O‘quv yili davomidagi ta’tillar muddatlari quyidagicha belgilanadi:

kuzgi ta’til – 4-noyabrdan boshlab 6 kalendar kun;

qishki ta’til – 28-dekabrdan boshlab 14 kalendar kun;

bahorgi ta’til – 21-martdan boshlab 7 kalendar kun;

yozgi ta’til – 1-iyundan (san’at yo‘nalishlari o‘quvchilari uchun 16-iyundan) 2-sentabrgacha etib belgilanadi.

Ta’tilning oxirgi kuni bayram (ishlanmaydigan) kunga to‘g‘ri kelgan taqdirda mashg‘ulotlar keyingi ish kunidan boshlanadi.

Choraklar oralig‘idagi ta’tillar davrida 28-sonli BMSM pedagog xodimlari tomonidan mashg‘ulotlarning ijodiy dasturlari ishlab chiqiladi, o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilar bilimlari tahlil qilinadi va ular bilan qo‘shimcha ishlar olib boriladi, maslahatlar beriladi, ota-onalar va o‘quvchilar o‘rtasida musiqa va san’atning ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati targ‘ib qilinadi, shaxsiy hamda taqvimiy ish rejalari tuziladi.

40. 28-sonli BMSMda o‘quv-tarbiya jarayoni quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

o‘quvchilar bilan guruh va yakka tartibdagi mashg‘ulotlar;

o‘quvchilarning mustaqil ishlari;

nazorat darslari;

akademik konsertlar va texnik sinovlar;

mustaqil ishlangan ijodiy mahsulotlar ko‘rgazmalari;

ko‘rik-tanlovlar, festivallar va ustoz saboqlari;

sinfdan sinfga o‘tkazish hamda bitiruv imtihonlari.

41. O‘quvchilarning bilimi va ijodiy mahorati quyidagi baholash mezonlari asosida baholanadi:

5 (a’lo), 4 (yaxshi), 3 (qoniqarli), 2 (qoniqarsiz).

42. Yakka tartibda mashg‘ulot olib boradigan o‘qituvchilar har bir o‘quvchi uchun shaxsiy ish rejasi, guruhli mashg‘ulot olib boradigan o‘qituvchilar taqvimiy ish rejasi tuzadilar.

43.Sinfdan sinfga o‘tkazish va bitiruv imtihonlari har yili 10-maydan 31-mayga qadar tashkil etiladi.

44. Bitiruv imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirgan o‘quvchilarga iyun oyida o‘qishni tugatganligi to‘g‘risida guvohnoma beriladi.

28-sonli BMSM bitiruvchilariga beriladigan guvohnoma blankasi qat’iy hisobda turadigan hujjat bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi buyurtmasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Davlat belgisi” davlat unitar korxonasi tomonidan tasdiqlangan namunaga muvofiq tayyorlanadi.

Guvohnoma dublikati qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda beriladi.

45. 28-sonli BMSMni tugatishiga bir yil qolgan o‘quvchilarga ota-onalari arizasi va mutaxassislik o‘qituvchisining tavsiya xatiga asosan pedagogik kengash qarori bilan, yuqori o‘zlashtirish va ijrochilik ko‘rsatkichlariga ega o‘quvchilarning yoshi, umumiy o‘rta ta’lim maktabidagi sinfi va o‘quv rejasining bajarilishi inobatga olinib, o‘qish muddati bir yilga qisqartirilishi mumkin. Bitiruv imtihonlarini topshira olmagan o‘quvchilarga 28-sonli BMSMda o‘qiganligi to‘g‘risida ma’lumotnoma beriladi.

46. 28-sonli BMSMda o‘quv jarayonini ta’minlash maqsadida musiqa cholg‘ulari, o‘quv asboblari, sahna rekvizitlari, kostyum fondi, nota-adabiyotlar, fonoteka va boshqa o‘quv-metodik resurslardan belgilangan tartibda foydalaniladi.

Zaruratga ko‘ra musiqa cholg‘ulari o‘quvchilarga vaqtincha foydalanish uchun berilishi mumkin. Ulardan foydalanish, saqlash va qaytarish tartibi 28-sonli BMSMning ichki hujjatlari bilan belgilanadi.

28-sonli BMSM ta’lim oluvchilar uchun xavfsiz, sog‘lom va qulay ta’lim muhitini yaratadi hamda ularning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish, zo‘ravonlik va tazyiq holatlarining oldini olish choralarini ko‘radi.

VII bob. Ta’lim oluvchilar

47. 28-sonli BMSM direktori bilan o‘qishga qabul qilingan o‘quvchilarning ota-onalari (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar) o‘rtasida o‘qish muddati uchun shartnoma tuziladi.

48. 28-sonli BMSM o‘quvchilarining huquqlari quyidagilardan iborat:

davlat ta’lim talablari asosida ixtiyoriy ravishda ta’lim olish;

qiziqishlari va qobiliyatlariga ko‘ra ta’lim yo‘nalishini tanlash;

bir yoki ikki mutaxassislik bo‘yicha ta’lim olish;

insoniy qadr-qimmatining hurmat qilinishini talab qilish, vijdon erkinligi, axborot olish erkinligi, o‘z qarashlari va e’tiqodini erkin ifoda etish;

xavfsiz va qulay ta’lim muhitida ta’lim olish;

28-sonli BMSMning o‘quv va ish faoliyatini takomillashtirishga oid takliflar kiritish.

28-sonli BMSM o‘quvchilari qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa

huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

49. 28-sonli BMSM o‘quvchilarining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

ichki tartib-qoidalarga rioya etish;

moddiy-texnika bazasidan oqilona foydalanish va uni asrab-avaylash;

jamoat ishlarida faol ishtirok etish;

28-sonli BMSM sha’ni va ichki odob-axloq qoidalariga rioya etish;

o‘z ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, bilimlarni mustaqil egallash ko‘nikmalarini shakllantirish va ularni amalda qo‘llash;

qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa majburiyatlarni bajarish.

VIII bob. O‘quvchilarni o‘qishdan chetlashtirish va akademik ta’til

50. O‘quvchilar quyidagi hollarda 28-sonli BMSMdan chetlashtirilishi mumkin:

o‘z xohishiga ko‘ra;

o‘qishning boshqa BMSMga ko‘chirilishi munosabati bilan;

salomatligi holatiga ko‘ra (hududiy tibbiy komissiya xulosasi asosida);

akademik o‘zlashtira olmaganligi (akademik qarzdorligi) sababli;

o‘quv intizomi va 28-sonli BMSMning ichki tartib-qoidalari buzilganligi uchun;

o‘qish uchun belgilangan to‘lov o‘z vaqtida amalga oshirilmaganligi sababli (to‘lovdan ozod etilgan o‘quvchilar bundan mustasno);

o‘quvchining sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etilganligi munosabati bilan;

vafot etganligi sababli.

Direktorning o‘quvchini 28-sonli BMSMdan chetlashtirish to‘g‘risidagi buyrug‘i ota-onaning arizasi, pedagogik kengash qarori yoki o‘qituvchining bildirishnomasi asosida chiqariladi.

51. Ota-onalarning arizasiga asosan o‘quvchiga 28-sonli BMSM direktorining buyrug‘i bilan bir yil muddatga akademik ta’til beriladi.

Akademik ta’til faqat bir yil muddatga beriladi.

52. Akademik ta’tildan qaytgan o‘quvchi yoki uning ota-onasi arizasiga asosan 28-sonli BMSM direktorining buyrug‘i bilan o‘qishga tiklanadi.

Akademik ta’til davrida o‘tilgan o‘quv dasturlarini o‘zlashtirish va mavjud akademik qarzdorliklarni bartaraf etish belgilangan tartibda ta’minlanadi.

53. 28-sonli BMSMdan chetlashtirilganiga uch oydan oshmagan o‘quvchilar belgilangan tartibda qayta o‘qishga tiklanishi mumkin.

Qayta tiklangan o‘quvchilar o‘qimagan davr uchun to‘lov majburiyatlarini belgilangan tartibda bajarishi, shuningdek shu davr mobaynida o‘tilgan o‘quv dasturlarini o‘zlashtirishi shart.

Qayta tiklash ota-onaning arizasi va pedagogik kengash tavsiyasi asosida 28-sonli BMSM direktorining buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.

IX bob. 28-sonli BMSMda pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish

54. Tegishli ma’lumotga hamda kasbiy tayyorgarlikka, yuksak axloqiy fazilatlarga ega shaxslar 28-sonli BMSMda pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega.

Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishi sud hukmi bilan taqiqlangan

shaxslarning ushbu faoliyat bilan shug‘ullanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

55. 28-sonli BMSM pedagog xodimlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

milliy va jahon madaniyatining durdona namunalariga tayanib, yoshlarning estetik didini rivojlantirish va ularni yuksak ma’naviy ruhda tarbiyalash;

pedagogik kengash, konferensiyalar, seminarlar, majlislar, uslubiy birlashmalar va 28-sonli BMSM rahbariyati yig‘ilishlarida ishtirok etish;

tasdiqlangan hujjatlar asosida ish yuritish hamda sinfdan tashqari mashg‘ulotlar yuzasidan 28-sonli BMSM rahbariyatiga hisobot taqdim etish;

o‘quvchilarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi va tarbiyasini kuzatish, tahlil qilish hamda tegishli choralar ko‘rish;

yakka tartibdagi mashg‘ulotlar uchun shaxsiy ish rejasi, nazariy fanlar bo‘yicha taqvimiy ish rejalarini tuzish.

56. 28-**sonli BMSM**da pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, kasb mahoratining yuqori darajada saqlab turilishi O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan ta’minlanadi.

Musiqa yo‘nalishlari bo‘yicha pedagog va mutaxassis kadrlar – O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Musiqa sohasi pedagoglarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazida, tasviriy va amaliy san’at, dizayn yo‘nalishlari bo‘yicha pedagog va mutaxassis kadrlar – O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta’lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazida reja asosida bepul malaka oshiradilar.

57. 28-sonli BMSM direktori va direktor o‘rinbosarlari har besh yilda bir marta ishdan ajralgan holda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan tashkil qilingan menejerlik o‘quv kurslarida o‘qitiladi.

58. 28-sonli BMSMning pedagog xodimlari har besh yilda bir marotaba ishdan ajralgan holda malaka oshirish kurslariga jalb etiladi.

59. Malaka oshirish tashkilotlariga ishdan ajralgan holda malaka oshirishga yuborilgan tinglovchilarning o‘qishi hamda mustaqil malaka oshirishi belgilangan tinglovchilarning yakuniy attestatsiyasi o‘tkaziladigan davrda ularning asosiy ish joyi bo‘yicha lavozimi va o‘rtacha ish haqi saqlab qolinadi, o‘quv yuklamalari esa boshqa pedagog xodimlar o‘rtasida taqsimlanadi.

Ishdan ajralgan holda malaka oshirish uchun boshqa hududlardan yuborilgan tinglovchilarga qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda yotoqxona va kunlik xarajatlari hamda o‘qishga borish va undan qaytish bo‘yicha bir martalik yo‘l haqi xarajatlari ularni yuborgan tashkilot hisobidan qoplanadi.

60. O‘qituvchi lavozimiga o‘z yo‘nalishi bo‘yicha kamida bakalavr darajasidagi oliy ma’lumotga ega bo‘lgan mutaxassislar (joylarda oliy ma’lumotli va yuqori malakaga ega pedagoglar yetishmasligini hisobga olib, istisno tariqasida o‘rta maxsus ma’lumotga ega bo‘lgan mutaxassislar) 28-sonli BMSM direktorining buyrug‘i bilan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimdan ozod etiladi.

61. Pedagog xodimlar faoliyati, kasbiy etikaga rioya etishi 28-sonli BMSM rahbariyati tomonidan nazorat qilinadi.

28-sonli BMSM rahbariyati pedagog xodimlarning obro‘-e’tibori va ijtimoiy maqomini, ularning mas’uliyati va kasb mahoratini oshirish bo‘yicha aniq yo‘nalishli

ishlarni amalga oshiradi, ularning tizimli ravishda malaka oshirishi va o‘z ustida ishlashi, ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shuningdek yangi o‘quv dasturlari joriy etilishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

62. 28-sonli BMSMda pedagog xodimlardan tashqari ma’muriy-xo‘jalik xodimlari faoliyat ko‘rsatadi.

Ularning lavozimiga oid huquq va majburiyatlari, ularni ishga qabul qilish tartibi, shtatdagi tegishli lavozimlarga qo‘yiladigan talablar, lavozimga tayinlash va bo‘shatish tartibi 28-sonli BMSM ustavida belgilanadi.

63. 28-sonli BMSM direktori va direktor o‘rinbosarlariga, o‘qituvchi va konsertmeysterlarga 56 kalendar kundan iborat yillik uzaytirilgan mehnat ta’tili beriladi.

Pedagog xodimlar tomonidan mehnat ta’tilidan so‘ng o‘quv yili boshlangunga qadar 28-sonli BMSMni yangi o‘quv yiliga tayyorlash, dars taqsimotini shakllantirish va ish rejalarini tuzish, qabul sinovlarini o‘tkazishda qabul komissiyasi faoliyatida ishtirok etish vazifalari amalga oshiriladi.

Jo‘rnavoz (konsertmeyster)lar ta’lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilari hisoblanadi hamda o‘quv mashg‘ulotlari, konsert chiqishlari, imtihonlar va ijodiy tadbirlarda pedagog xodimlar bilan hamkorlikda ishtirok etadi.

Ularning huquq va majburiyatlari qonunchilik hujjatlari hamda lavozim yo‘riqnomalari bilan belgilanadi.

X bob. 28-sonli BMSMni boshqarish

64. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari 28-sonli BMSMning muassislari hisoblanadi va 28-sonli BMSMning umumiy faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

28-sonli BMSMning samarali faoliyat yuritishini ta’minlash, ularga ilmiy-uslubiy yordam ko‘rsatish hamda faoliyatini muvofiqlashtirish “Madaniyat ta’limi markazi” davlat muassasasi tomonidan amalga oshiriladi.

65. 28-sonli BMSMga bevosita rahbarlik tegishli ravishda hududiy madaniyat boshqaruv organlari boshliqlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda “Madaniyat ta’limi markazi” davlat muassasasi bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor tomonidan amalga oshiriladi.

28-sonli BMSM direktori 28-sonli BMSMning tashkiliy-huquqiy, o‘quv-tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy va moliya-xo‘jalik faoliyati uchun bevosita mas’ul hisoblanadi.

28-sonli BMSM direktori lavozimiga qo‘yiladigan malaka talablari O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan belgilanadi.

28-sonli BMSM direktori va xodimlari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik va shaffoflikni ta’minlash to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etadi.

66. 28-sonli BMSMning tarkibiy tuzilmasini direktor, direktorning o‘quv-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, direktorning xo‘jalik ishlari bo‘yicha o‘rinbosari,

buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi hamda xo‘jalik bo‘limi tashkil etadi.

28-sonli BMSMda o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish maqsadida direktor buyrug‘i asosida ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha bo‘linmalar tegishli ta’lim yo‘nalishida kamida 3 nafar pedagog xodim faoliyat yuritgan taqdirda, shuningdek o‘zaro yaqin ta’lim yo‘nalishlarini birlashtirish orqali tashkil etiladi.

67. Direktorning vazifalari quyidagilardan iborat:

28-sonli BMSMga umumiy rahbarlikni amalga oshirish;

kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish va ularning zaxirasini shakllantirish;

pedagoglar va boshqa xodimlarga o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

o‘quvchilarning intizomi, bilim saviyasi hamda maktab va sinfdan tashqari ishlar tashkil etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish;

o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘yicha zarur ishlarni tashkil etish;

maktab xarajatlar smetasiga rioya etilishini nazorat qilish;

mehnat intizomi, sanitariya qoidalari va normalari, gigiyena normativlari, mehnatni muhofaza qilish, yong‘in hamda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etilishini ta’minlash;

bolalarga yil mobaynida maslahat darslari o‘tilishini va ularni kirish imtihonlariga tayyorlashni nazorat qilish;

umumiy o‘rta, qo‘shimcha ta’lim muassasalari va madaniyat markazlari bilan o‘zaro aloqalar o‘rnatish;

ota-onalar va jamoatchilik bilan ishlarni tashkil qilish;

yuqori turuvchi organlarga hisobot berish;

o‘z vakolati doirasida intizomiy jazo choralarini qo‘llash;

xodimlarni rag‘batlantirish va mukofotlashga taqdim etish;

mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish.

68. Direktorning o‘quv-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari “Madaniyat ta’limi markazi” davlat muassasasi bilan kelishilgan holda, direktorning xo‘jalik ishlari bo‘yicha o‘rinbosari esa direktor tavsiyasiga ko‘ra tegishli hududiy madaniyat boshqaruv organlari tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Direktorning o‘quv-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari musiqa va san’at sohasi bo‘yicha kamida bakalavr darajasidagi oliy ma’lumotga ega, xorijiy tillardan kamida bittasini boshlang‘ich darajada biladigan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalariga ega hamda kamida uch yil pedagogik ish stajiga ega bo‘lgan mutaxassislar orasidan tayinlanadi.

69. Direktorning o‘quv-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarining vazifalari quyidagilardan iborat:

o‘quv-tarbiyaviy ishlar va ish hujjatlarining mazmunini nazorat qilish;

pedagog xodimlarga metodik yordam ko‘rsatish;

o‘quv-uslubiy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil qilish;

o‘qitish uslubini tahlil qilish maqsadida o‘quv mashg‘ulotlariga kirish;

pedagog xodimlarning 28-**sonli BMSM** ichki tartib-qoidalariga rioya etishini nazorat qilish;

o‘quv-tarbiyaviy, uslubiy ish rejalari, dars jadvali, ochiq darslar rejasi, sinov imtihonlari, pedagoglar haqida ma’lumotlar, o‘quv mashg‘ulotlari tarifikatsiyasini

tuzish va tasdiqlash uchun **28-sonli BMSM** direktoriga taqdim etish;

direktor bo‘lmagan vaqtda uning vazifasini bajarib turish;

pedagog xodimlar tomonidan dars jadvali, o‘quv-uslubiy, tarbiyaviy hamda sinfdan tashqari ishlarning bajarilishini nazorat qilish;

28-sonli BMSM direktori va uning o‘quv-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari o‘z ixtisosliklari bo‘yicha mehnat qonunchiligiga muvofiq pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishlari mumkin.

70. Direktorning xo‘jalik ishlari bo‘yicha o‘rinbosarining vazifalari quyidagilardan iborat:

xo‘jalik faoliyatini boshqarish, 28-**sonli BMSM**ning o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazish uchun tayyor holda saqlanishini ta’minlaydi;

28-sonli BMSM mablag‘laridan maqsadli foydalanish tadbirlarini o‘z vakolati doirasida ishlab chiqish hamda ulardan to‘g‘ri foydalanilishini ta’minlaydi;

moliyaviy faoliyat natijalarini tahlil qilish, shartnoma majburiyatlarining belgilangan muddatida to‘liq bajarilishini ta’minlash, moliyalashtirishning qonunchilikda taqiqlanmagan turli manbalari hisobiga budjetdan tashqari mablag‘larni shakllantirish va ulardan samarali foydalanilishini nazorat qiladi;

tovar-moddiy boyliklar va asosiy vositalar tushumini to‘liq hisobga oladi;

qo‘shimcha moliyaviy manbalar va moddiy mablag‘larni jalb etish hamda xodimlar va o‘quvchilar uchun zarur ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlarni ta’minlash chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

asosiy vositalar, musiqa cholg‘ulari, texnik jihozlar, o‘quv inventarlari, kutubxona fondi va boshqa moddiy boyliklarni belgilangan tartibda inventarizatsiyadan o‘tkazishni tashkil etadi;

musiqa cholg‘ulari, asbob-uskunalar, sahna jihozlari, mebel, o‘quv qurollari va kutubxona fondining saqlanishi, hisobini yuritish hamda ulardan maqsadli va samarali foydalanilishi ustidan nazoratni ta’minlaydi;

moddiy boyliklar bo‘yicha davriy inventarizatsiya natijalari yuzasidan tegishli dalolatnomalar rasmiylashtirilishini va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘radi;

foydalanishdagi va hisobdan chiqarilishi lozim bo‘lgan cholg‘ular, jihozlar va boshqa inventarlar bo‘yicha belgilangan tartibda takliflar kiritadi;

moddiy-texnika bazasini rivojlantirish ishlarini tashkil etish, bino va qo‘shimcha obyektlarning texnik holati va jihozlanganligini muntazam o‘rganib boradi;

28-sonli BMSMga yetkazib berilayotgan jihozlarni belgilangan tartibda qabul qilish, jihozlarning sinf xonalari va boshqa xonalar bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlanishini amalga oshiradi;

kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik jarayonida tegishli ravishda ko‘mir, suyuq yoqilg‘i, tabiiy gaz va elektr quvvatiga bo‘lgan ehtiyojlarni aniqlash va ma’lumotlarni 28-sonli BMSM direktoriga taqdim etish hamda qabul qilingan yoqilg‘ilarning sifati va saqlanishini ta’minlaydi;

28-sonli BMSMga biriktirilgan hududlarni obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish va tozalash ishlarini muvofiqlashtirish va nazorat qilish, o‘ziga bo‘ysunuvchi tegishli bo‘linma hamda texnik xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar ishlarini

muvofiqlashtiradi;

kommunal resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash;

sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya etadi.

XI bob. 28-sonli BMSM pedagogik kengashining faoliyati

71. Davlatning musiqa va san’at yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim siyosatini amalga oshirish, maqsad va vazifalardan kelib chiqib ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish va takomillashtirishda pedagogik jamoa faoliyati yo‘nalishlarini belgilash, ta’limdagi yutuqlar va ilg‘or pedagogik tajribalarni amaliyotga joriy etishda pedagogik jamoani birlashtirish, demokratiya, oshkoralik va o‘zini o‘zi boshqarish tamoyillari asosida boshqaruvni amalga oshirish, shuningdek 28-**sonli BMSM** faoliyati bilan bog‘liq eng muhim masalalarni muhokama qilish, muammolarni bartaraf etish va istiqboldagi rejalarni shakllantirish maqsadida 28-sonli BMSMda pedagogik kengash tashkil etiladi.

Pedagogik kengash 28-sonli BMSMning yuqori kollegial boshqaruv organi hisoblanadi.

72**.** 28-sonli BMSM direktori pedagogik kengash raisi hisoblanadi.

Pedagogik kengash tarkibiga direktor, direktorning o‘quv-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari va pedagog xodimlar kiradi.

28-sonli BMSMning har bir pedagog xodimi ishga qabul qilingan paytdan boshlab pedagogik kengash a’zosi hisoblanadi.

Pedagogik kengash kotibi pedagog xodimlar orasidan tayinlanadi.

Pedagogik kengash raisi o‘z vazifasini bajara olmaydigan hollarda (kasallik, xizmat safari va boshqa hollarda) uning vazifalari direktorning o‘quv-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari tomonidan amalga oshiriladi.

73**.** Pedagogik kengash yig‘ilishlari bir o‘quv yili davomida kamida besh marta o‘tkaziladi.

Har chorakda kamida bir marta pedagogik kengash yig‘ilishi chaqiriladi.

Zaruratga ko‘ra navbatdan tashqari yig‘ilishlar ham o‘tkazilishi mumkin.

74. Pedagogik kengashning vazifalari 28-sonli BMSM ustavida belgilanadi.

Pedagogik kengash raisi kengash tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosini doimiy nazorat qilib boradi.

75. Pedagogik kengashda muhokama qilinadigan masalalar mazmunidan kelib chiqib yig‘ilishlarga tegishli madaniyat boshqaruv organlari, ota-onalar qo‘mitasi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa tashkilotlar vakillari taklif etilishi mumkin.

76. Pedagogik kengash faoliyati tegishli madaniyat boshqaruv organlari tomonidan nazorat qilinadi.

77. Pedagogik kengash faoliyati BMSMning yillik ish rejasida alohida band bilan aks ettiriladi.

Ish reja pedagogik kengash yig‘ilishida ko‘rib chiqilib ma’qullangandan keyin

pedagogik kengash raisi tomonidan tasdiqlanadi.

78. Pedagogik kengash yig‘ilishlarida BMSM faoliyatiga oid eng muhim va dolzarb masalalar muhokama qilinadi.

79. Pedagogik kengash yig‘ilishlari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Pedagogik kengash yig‘ilishi bayonnomalarida 28-**sonli BMSM** faoliyati bilan bog‘liq eng muhim masalalarni muhokama qilish, muammolarni bartaraf etish va istiqboldagi rejalarni shakllantirish, shuningdek kun tartibidagi boshqa masalalar yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishlar va qabul qilingan qarorlar rasmiylashtiriladi.

Pedagogik kengash yig‘ilishi bayonnomalari elektron shaklda (matn ko‘rinishida) tayyorlanadi, pedagogik kengash raisi va kotibi tomonidan imzolanadi hamda yig‘ma jild (reyestr)ga tikib boriladi.

Bayonnomalarning tartib raqami, sanasi va unda ko‘rilgan masalalar pedagogik kengash yig‘ilishlari bayonnomalarini ro‘yxatga olish jurnaliga kiritib boriladi.

Pedagogik kengash yig‘ilishi bayonnomalarini ro‘yxatga olish jurnali ip o‘tkazib bog‘lanadi va raqamlanadi hamda hududiy madaniyat boshqaruv organlari boshliqlari tomonidan imzolanib, muhrlanadi.

Pedagogik kengash yig‘ilishi bayonnomalari va mazkur bayonnomalarni ro‘yxatga olish jurnali kengash kotibi tomonidan yuritiladi.

80. Bayonnomaning kirish qismida yig‘ilish sanasi, bayonnoma raqami, ishtirok etganlar soni va kun tartibiga kiritilgan masalalar ko‘rsatiladi.

Kun tartibiga kiritilgan har bir masala muhokamasi, pedagogik kengash a’zolari tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalar hamda qabul qilingan qarorlar bayonnomada qayd etib boriladi.

Pedagogik kengash yig‘ilishi bayonnomalarini raqamlash har o‘quv yili boshida yangidan boshlanadi.

81. Pedagogik kengash yig‘ilishlari, agar ularda a’zolarning kamida uchdan ikki qismi, navbatdan tashqari yig‘ilishlarda esa kamida uchdan bir qismi ishtirok etsa vakolatli hisoblanadi.

82. Pedagogik kengash qarorlari ochiq ovoz berish yo‘li bilan qabul qilinadi.

Qarorlar yig‘ilishda qatnashgan a’zolarning oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Ovozlar teng bo‘lib qolgan taqdirda pedagogik kengash raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

83. Pedagogik kengash yig‘ilishi o‘tkaziladigan vaqt, joy va kun tartibi kamida bir hafta oldin e’lon qilinadi, navbatdan tashqari yig‘ilishlar bundan mustasno.

84. Muhokama qilinadigan masalalar bo‘yicha tayyorlangan materiallar yig‘ilish boshlanishidan kamida bir hafta oldin rahbariyatga yoki pedagogik kengash kotibiga taqdim etiladi.

85. 28-sonli BMSM pedagogik kengashi quyidagi huquqlarga ega:

o‘quv jarayonini takomillashtirish va moddiy-texnik bazani mustahkamlash bo‘yicha qarorlar qabul qilish;

o‘quvchilarni keyingi sinfga ko‘chirish yoki sinfda qoldirish masalalarini ko‘rib chiqish;

akademik ta’til berish va o‘qishni tiklash bo‘yicha tavsiyalar ko‘rib chiqish;

pedagog xodimlarni rag‘batlantirish bo‘yicha takliflar kiritish;

turli komissiyalar tarkibiga nomzodlar tavsiya etish;

malaka toifasini oshirishga tavsiya berish;

ko‘rik-tanlov va festivallarda ishtirok etish uchun nomzodlar tavsiya etish;

28-sonli BMSMning istiqbol rejalarini belgilash.

Pedagogik kengash qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

86. 28-sonli BMSM pedagogik kengashining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

28-sonli BMSM ish rejalari ijrosi bo‘yicha hisobotlarni eshitish;

pedagog xodimlar va o‘quvchilar huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir masalalarni ko‘rib chiqish;

metodik kengash faoliyati hisobotlarini ko‘rib chiqish;

ta’lim-tarbiya sifatini yaxshilashga doir takliflarni muhokama qilish;

o‘quv rejalarini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish;

munozarali masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilish;

zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni qo‘llab-quvvatlash;

normativ-huquqiy va metodik hujjatlar ijrosi ustidan nazoratni ta’minlash.

28-sonli BMSM pedagogik kengashi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

87. 28-sonli BMSMda pedagogik kengash faoliyatiga oid quyidagi hujjatlar yuritiladi:

pedagogik kengash to‘g‘risidagi nizom;

pedagogik kengash yig‘ilishlari bayonnomalarini qayd etish kitobi.

88. Pedagogik kengash yig‘ilishi bayonnomalari va ularni ro‘yxatga olish jurnalining saqlanishiga pedagogik kengash raisi va kotibi javobgar hisoblanadi.

Pedagogik kengash yig‘ilishi bayonnomalari hamda ularni ro‘yxatga olish jurnali yuritilishiga qarab (zaruratga ko‘ra bir necha qismli jildlarda) besh yil davomida saqlanadi va belgilangan tartibda arxivga topshiriladi.

89. Pedagogik kengash o‘z vakolatlari doirasida 28-sonli BMSM faoliyatiga oid masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

Pedagogik kengash qarorlari yig‘ilish bayonnomalari bilan rasmiylashtiriladi.

90. Pedagogik kengash qarorlari ijrosi tegishli xodimlar uchun majburiydir.

Qarorlar ijrosi ustidan nazorat pedagogik kengash raisi tomonidan amalga oshiriladi.

XII bob. 28-sonli BMSMning mol-mulki va mablag‘lari

91. BMSM faoliyatini moliyalashtirish belgilangan tartibda tasdiqlangan va ro‘yxatdan o‘tkazilgan xarajatlar smetasiga muvofiq amalga oshiriladi.

BMSM o‘ziga biriktirilgan mol-mulkdan va xarajatlar smetasi bo‘yicha ajratilgan mablag‘lardan qonunchilik hujjatlariga muvofiq foydalanadi.

92. 28-sonli BMSM faoliyatini moliyalashtirish quyidagi manbalar hisobidan amalga oshiriladi:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari;

ota-onalar to‘lovi mablag‘lari;

o‘quvchilar va pedagog xodimlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar va buyumlarni sotishdan tushgan mablag‘lar;

asosiy mashg‘ulotlardan tashqari paytda bo‘sh binolar, inshootlar va asbob-uskunalarni ijaraga berishdan tushgan mablag‘lar;

xo‘jalik faoliyatidan, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan shartnoma asosida pulli xizmatlar ko‘rsatishdan olingan mablag‘lar;

o‘quvchilar va pedagog xodimlar tomonidan o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’sir etmagan holda badiiy kechalar, konsert va teatr tomoshalari tashkil etishdan tushgan mablag‘lar;

asosiy mashg‘ulotlardan tashqari turli o‘quv kurslarini tashkil etishdan tushgan mablag‘lar;

jismoniy va yuridik shaxslarning qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan homiylik xayriyalari, mahalliy va xalqaro tashkilotlarning grantlari;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

93. Qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan faoliyatdan olingan daromad hisobiga sotib olingan mol-mulk BMSMning mol-mulki tarkibiga kiritiladi.

94. BMSM mol-mulki, musiqa cholg‘ulari, kutubxona fondi va boshqa moddiy boyliklar qonunchilik hujjatlariga muvofiq kamida yiliga bir marta inventarizatsiyadan o‘tkaziladi.

28-sonli BMSMning mol-mulki va pul mablag‘laridan maqsadli va oqilona foydalanilishi uchun bevosita 28-sonli BMSM direktori javobgar hisoblanadi.

95. 28-sonli BMSM tomonidan qonunchilik hujjatlariga muvofiq moliyaviy va statistik hisobotlar yuritiladi.

96. 28-sonli BMSM xodimlarini moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish, mukofotlash hamda ish haqiga ustamalar belgilanishi qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

97. 28-sonli BMSM shtatidagi xodimlar soni namunaviy shtatlarga muvofiq belgilanadi.

28-sonli BMSMning namunaviy shtatlari O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

98. 28-sonli BMSMning moddiy-texnika ta’minoti va kadrlar bilan ta’minlanishi belgilangan normativlar va ehtiyojlar asosida amalga oshiriladi.

99. 28-sonli BMSM tegishli mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan birgalikda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlarini amalga oshiradi.

100. 28-sonli BMSM qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda budjetdan tashqari mablag‘lardan samarali foydalanish, ularning hisobini yuritadi hamda maqsadli sarflanishini ta’minlaydi.

XIII bob. Jamoat tashkilotlari

101. 28-sonli BMSMning kasaba uyushmasi qo‘mitasi jamoat birlashmasi hisoblanadi hamda uning faoliyati qonunchilik hujjatlariga muvofiq tashkil etiladi.

Kasaba uyushmasi qo‘mitasi o‘z faoliyatini mustaqillik, qonuniylik, ixtiyoriylik va jamoatchilik prinsiplari asosida amalga oshiradi.

102. 28-sonli BMSMning kasaba uyushmasi qo‘mitasi quyidagi masalalarni ko‘rib chiqadi:

ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yaxshilash;

jamoada sog‘lom ma’naviy-ruhiy muhit yaratish;

xodimlarning mehnat, ijtimoiy-iqtisodiy va kasbiy huquqlarini himoya qilish;

xodimlar uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratish va yaxshilash;

xodimlarning dam olishi va sog‘lomlashtirilishini tashkil etish;

mehnat intizomini mustahkamlash;

mehnat muhofazasi va xavfsiz mehnat sharoitlari masalalarini ko‘rib chiqish;

jamoa manfaatlariga oid boshqa masalalarni ko‘rib chiqish.

103. 28-sonli BMSMning kasaba uyushmasi qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq maktab xodimlari, o‘quvchilarning ota-onalari (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar), fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, boshqa ta’lim muassasalari hamda nodavlat notijorat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlikda faoliyat yuritadi.

104. Kasaba uyushmasi qo‘mitasi o‘z vakolatlari doirasida 28-sonli BMSM jamoasi manfaatlarini ifodalaydi va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

XIV bob. 28-sonli BMSMni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish

105. BMSM qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladi va davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi.

28-sonli BMSM faoliyati muassis tomonidan tasdiqlangan ustav asosida amalga oshiriladi.

106. 28-sonli BMSMni qayta tashkil etish yoki tugatish qonunchilik hujjatlariga muvofiq o‘quv yili yakunida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi bilan kelishilgan holda muassis tomonidan amalga oshiriladi.

107. 28-sonli BMSM tugatilgan taqdirda uning muassisi o‘quvchilarni ota-onalarining roziligi bilan boshqa bolalar musiqa va san’at maktablariga o‘tkazish bo‘yicha mas’ul hisoblanadi.

108. 28-sonli BMSM tugatilgan taqdirda uning pul mablag‘lari va mol-mulkidan, mavjud majburiyatlarini qoplash bo‘yicha to‘lovlar chegirilgan holda, qonunchilik hujjatlariga hamda 28-sonli BMSM ustaviga muvofiq tasarruf etiladi.

109. 28-sonli BMSM qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda xodimlarning mehnat huquqlari va ijtimoiy kafolatlari saqlanishi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ta’minlanadi.

XV bob. Yakunlovchi qoidalar

110. 28-sonli BMSM qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda qo‘shimcha ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi mumkin.

Xalqaro hamkorlik xorijiy tashkilotlar bilan tuziladigan shartnomalar asosida pedagogik axborot va tajriba almashish, pedagog xodimlarning malaka oshirishi hamda stajirovka o‘tashi shaklida amalga oshiriladi.

111. 28-sonli BMSM o‘quvchilarning ota-onalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, boshqa ta’lim muassasalari hamda nodavlat, notijorat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlikda faoliyat ko‘rsatadi.

112. 28-sonli BMSMda uning asosiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan tashkilotlar, shu jumladan siyosiy partiyalar va harakatlar tashkil etilishi va faoliyat yuritishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

113. 28-sonli BMSMda ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, boshqaruv faoliyati ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, hujjatlar yuritilishini takomillashtirish hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish maqsadida qonunchilik hujjatlariga muvofiq raqamli texnologiyalar va elektron axborot tizimlaridan foydalaniladi.

28-sonli BMSMda hujjat aylanishi, hisob, nazorat va monitoring jarayonlari, shuningdek o‘quv jarayoniga oid ma’lumotlarni yuritish elektron shaklda tashkil etiladi.

28-sonli BMSMda elektron resurslar va axborot tizimlaridan foydalanishda ma’lumotlarning ishonchliligi, saqlanishi hamda axborot xavfsizligi talablariga rioya etilishi ta’minlanadi.

Elektron tizimlardan foydalanish shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

28-sonli BMSM faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash maqsadida muhim axborotlar belgilangan tartibda jamoatchilikka e’lon qilinadi.

114. Ushbu Ustavda nazarda tutilmagan masalalar qonunchilik hujjatlariga hamda ushbu Namunaviy ustav asosida qabul qilingan boshqa ichki hujjatlarga muvofiq hal etiladi.

115. Ushbu Ustav talablarini buzgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Ushbu Ustavda nazarda tutilmagan masalalar qonunchilik hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

116. Ushbu Namunaviy ustav asosida ishlab chiqilgan 28-sonli BMSM ustavlari uning qoidalariga zid bo‘lishi mumkin emas.

28-sonli BMSM direktori **M.R.Xodjayeva**